

GILOS PASHSHASI – (*RHAGOLETIS CERASI* L.) BIOEKOLOGIYASI VA ZARARI

Muminova Ra‘no Dalabayevna

ORCID: 0000-0002-5689-4563

Abdullayeva Shodiya Azimboy qizi, magistr

ORCID: 0009-0007-4679-0190

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada gilos pashshasining bioekologiyasi va zarari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: gilos, pashsha, zararkunanda, lichinka, imago, tuxum, partenogenez, fotosintez, zararlash darajasi.

Аннотация. В данной статье приведены сведения о биоэкологии и вредоносности вредителей повреждающих вишню.

Ключевые слова: вишня, вредитель, личинка, имаго, яйцо, партеногенез, фотосинтез, уровень повреждения.

Abstract: This article provides information about the bioecology and distribution that damage cherries.

Keywords: cherry, pest, larva, adult, egg, parthenogenesis, photosynthesis, level of damage.

Kirish. Dunyo bo‘yicha gilos yetishtirish va uni zararkunandalardan himoya qilishga alohida e‘tibor berilmoqda. Inson salomatligi uchun foydali bo‘lgan gilos dunyo bo‘yicha 65 ta mamlakatda ekiladi va har yili umumiy hisobda o‘rtacha 9 mln tonna gilos yetishtiriladi.

Hozirda gilos yetishtiriladigan mamlakatlarda gilos hosildorligi va sifatiga katta iqtisodiy zarar yetkazadigan zararkunandalarga qarshi kurash choralarini takomillashtirish va shu asosida inson va atrof muhit uchun kam zararli bo‘lgan kurash tadbirlarini ishlab chiqishga jahonda alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistondagi gilos bog‘larida uchrayotgan 22 tur zararkunandalardan 10 turdan ortiqrog‘i hosildorlikning kamayishiga, eksportbopligi, meva sifatining pasayishiga olib kelmoqda [1, 3].

Materiallar va uslublar. Tadqiqotlar yo‘nalishli va turg‘un usullar asosida amalga oshirildi. Materiallar yig‘ish va zararkunandalarning tur tarkibini aniqlash umumqabul qilingan entomologik usullar bilan amalga oshirildi.

Toshkent viloyati sharoitida 2023-2025 yillarda olib borilgan tadqiqotlarimizda gilos pashshasining bioekologiyasi va zararini o‘rgandik.

Natijalar va munozara. Bugungi kunda gilos daraxti zararkunandalardan sharq mevaxo‘ri – *Grapholitha molesta* Bussk., olcha shilliq arrakashi – *Caliroa cerasi* L., oddiy o‘rgimchakkana – *Tetranychus urticae* Koch, qizil o‘rgimchakkana – *Panonychus ulmi*, Kaliforniya qalqondori – *Diaspidiotus perniciosus* Comst, gilos pashshasi – *Rhagoletis cerasi* va hakazo hasharotlar uchrashi keltirilgan [1 – 148-b.].

Gilosning eng xavfli zararkunandalardan biri gilos pashshasidir. Gilos pashshasi – (*Rhagoletis cerasi* L.) (Insecta) sinfini ikki qanotlilar (Diptera) turkumiga mansub hasharotlar hisoblanadi. Gilos pashshalarining o‘ziga xos belgilaridan biri qanotlari ustida qora-jigarrang 4 ta chiziqlar mavjud. Pashshaning tana uzunligi 4–6 mm, bosh, qalqon va oyoqlar asosan yorqin qora rangdan, bel atrofi esa sariq rangdan iborat. G‘umbagi 3-4 mm ni tashkil

qiladi. Bahorda tuproqning 5 sm chuqurlikkacha bo‘lgan qatlami +10°C haroratgacha ko‘tarilishi bilan pashshalar g‘umbagidan uchib chiqa boshlaydi. Harorat +18°C dan ko‘tarilishi bilan urchish jarayoni boshlanadi va 4-10 kundan so‘ng urg‘ochi pashsha tuxum qo‘yishni boshlaydi. Pashshalar pishib yetilmagan gilos mevasining har biriga bir donadan tuxum qo‘yadi. Urg‘ochi pashsha o‘zining 1 oylik umri davomida 150 taga yaqin tuxumni gilos etiga qo‘yadi. Lichinkaning gilos etida rivojlanishi 7-10 kun davom etadi va 15-25 kun davomida mevada oziqlanadi. Yetilgan lichinka meবাদan chiqib, tuproqning 5-6 sm qatlamida g‘umbakka aylanadi. G‘umbak yer sathidan bir necha santimetr pastda bo‘ladi. Bir mavsumda bir marta avlod beradi. G‘umbak holatida kelgusi yil mart oyining 3 – dekadasigacha qolishi mumkin.

Har bir mevada o‘tib rivojlanish uchun zaruriy moddalar mavjudligi sababli, bitta mevada 1 ta lichinka, kamdan-kam hollarda 2 ta lichinka uchraydi. Agar mevalar ikki hafta davomida yumshoq bo‘lsa, unda rivojlanuvchi lichinka 100 % omon qolishi kuzatilgan.

Gilos pashshasiga qarshi quyidagi tadbirlar qo‘llaniladi: bog‘larni mineral va organik o‘g‘itlar bilan oziqlantirish, sug‘orish, qator oralariغا ishlov berish hamda bog‘ning ichkarisi va atroflaridagi begona o‘tlarni yo‘q qilish zarur.

Gilos pashshasini oldindan aniqlash, monitoring qilish maqsadida daraxtlarga gektariga 1 donadan feromon tutqichlar qo‘yish va ularni doimiy kuzatib borish muhim hisoblanadi.

Ushbu zararkunanda aniqlanganda unga qarshi oltinko‘z entomofagini bog‘larga tarqatish hamda ta‘sir etuvchi moddasi abamektin, imidoklopid va lyambda-sigalotrin bo‘lgan insektotsidlarni qo‘llash yuqori samara beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, pashsha lichinkalari gilos mevalarining etida rivojlanadi. Zararkunanda ta‘siri natijasida mevalarning sifati buziladi, erta to‘kilib, chirish holatiga keladi. Unga qarshi mavjud tavsiya etilgan abamektin, imidoklopid va lyambda-sigalotrin bo‘lgan insektotsidlar bilan kurashish samarali hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Abrorov, Sh. Zamonaviy intensiv gilos bog‘lari. – Toshkent: “Baktria press”, 2018. – 148 b
2. Алланазаров О., Болтаев Ш. Насекомые - вредители вишни и черешни в условиях Ташкентской области. О‘zbekiston respublikasi agrosanoat majmuasi tarmoqlarida innovatsion boshqaruv faoliyatini modernizatsiyalash va rivojlantirish muammolari ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2-qism. Toshkent – 2013y

**“O‘SIMLIKLARNI HIMOYASI VA KARANTINIDA ILG‘OR TAJRIBALAR ASOSIDA
UYG‘UNLASHGAN HIMOYA TIZIMINI QO‘LLASH” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLAR TO‘PLAMI**

 agrokimyo.uzsci.uz  karantinjurnali

3. Bababekov Q., Sayimov N., Qalandarova M. Gilos pashshasiga feromon tutqichlarini qo'llash muddati va meyori. "Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini" ilmiy-amaliy jurnali. №2. 2021

4. Tufliyev N.X., Xolmirzaeva Z.B. Farg'ona vodiysi sharoitida gilosning asosiy zararkunandalari va bioekologiyasi// Agrar fan nazariyasi va amaliyotidagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari "Toshkent davlat agrar universiteti tashkil etilganligining 90 yilligiga" bag'ishlangan xalqaro konferentsiyaning materiallari to'plami (14-15 dekabr, 2020 yil). – Toshkent, 2020. – B. 621-625.

5. Туфлиев Н.Х., Холмирзаева З.Б. Изучение основных вредителей черешни в условиях Ферганской долины и методы борьбы с ними// «Oziq-ovqat xavfsizligida o'simliklar himoyasining innovatsion texnologiyalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman» materiallari. 2-қисм. – Тошкент, 2021. – Б. 364-369.